Mintaqaviy va milliy tadqiqotlar demografik o'zgarishlarning kontekstga bog'liqligini ham ta'kidlaydi. Demografik dividend faqat demografik strukturaning o'zgarishidan emas, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat bozori va makroiqtisodiy siyosatlarning uyg'unligidan kelib chiqadi. Shu sababli O'zbekiston kabi o'sish bosqichida bo'lgan mamlakatlar uchun siyosiy tavsiyalar ishlab chiqishda xalqaro tajriba (masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining erta demografik dividenddan foydalangan modeli) hamda mahalliy institutsional xususiyatlar birgalikda hisobga olinishi zarur.

Umuman olganda, adabiyotlar demografik o'zgarishlarni faqat statistik hodisa sifatida emas, balki siyosat, institutlar va inson kapitali bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida talqin qiladi. Demografik dividendni qo'lga kiritish yoki qarishning salbiy oqibatlarini yumshatish iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlarning maqsadga yo'naltirilgan, o'z vaqtida va integratsiyalashgan bo'lishiga bog'liq. Ushbu xulosalar O'zbekiston sharoitida olib boriladigan keyingi tadqiqotlar va siyosiy qarorlar uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda demografik o'zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini aniqlash maqsadida statistik ma'lumotlar, xalqaro tashkilotlar (BMT, Jahon banki, OECD) hisobotlari hamda milliy demografik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Ma'lumotlar qiyosiy va dinamik tahlil usullari orqali qayta ishlanib, regressiya va korrelyatsion bog'liqliklar yordamida demografik omillarning iqtisodiy o'sishga ta'siri baholandi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Demografik jarayonlar har bir mamlakatda turlicha kechmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda tug'ilish darajasining nisbatan pasayishi fonida mehnatga layoqatli aholining ulushi ortib borayotgan bo'lsa, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda aholi qarish jarayoni va depopulyatsiya holatlari kuchaymoqda. Shu sababli demografik tendensiyalar — u o'sish yoki kamayish shaklida bo'lishidan qat'i nazar — jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omilga aylanmoqda.

Yaqin o'tmishda jahon hamjamiyati aholi sonining tez o'sishi, ularni oziq-ovqat, ichimlik suvi, energiya va uy-joy bilan ta'minlash muammolariga e'tibor qaratgan edi. Shu bois ko'plab mamlakatlarda tug'ilish darajasini cheklash, oilani rejalashtirish siyosati keng ko'lamda amalga oshirildi. Biroq bugungi kunda ushbu choralarning salbiy natijalarini bartaraf etish zarurati tug'ilmoqda. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlangan mamlakatlarda aholi soni kamayishi va qarish jarayonining tezlashuvi kuzatildi. Shu bilan birga, tug'ilishning pasayishi endilikda global miqyosdagi hodisaga aylanib bormoqda: agar o'tgan asr o'rtalarida bir ayolga o'rtacha besh nafar farzand to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 2,3 bolani tashkil etadi.

Keyingi o'n yilliklarda demografik o'sishning 90 foizi Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlariga to'g'ri kelmoqda. Bunga qarama-qarshi tarzda, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda aholi soni qisqarib, o'rtacha yosh oshib bormoqda. Demografik inqiroz holatlari Yevropada bo'lgani singari, Osiyoning ayrim davlatlarida — masalan, Yaponiya va Janubiy Koreyada ham kuzatilmoqda.

BMT prognozlariga ko'ra, 2050-yilga kelib yer yuzi aholisi tarkibida 60 yoshdan oshganlar 22 foizni tashkil etadi. Har soniyada ikki kishi 60 yoshga to'lmoqda, asr o'rtalarida esa 100 yoshdan oshganlar soni 3,2 million kishiga yetishi kutilmoqda. Aholining o'rtacha yoshi 2050-yilda 76, 2100-yilda esa 85 yosh atrofida bo'ladi. Bu holat sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi, iqtisodiy farovonlik va hayot sharoitlarining yaxshilanishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlarda har bir mehnat qiluvchi shaxsga bir nafar nafaqadagi fuqaro to'g'ri keladi.

Natijada, iqtisodiy faol aholi qisqarishi fonida keksalar ulushining ortishi demografik yukni oshiradi, pensiya tizimi va sog'liqni saqlash sohalarida qo'shimcha bosim yuzaga keltiradi. Yangi mehnat kuchiga bo'lgan talab bilan yosh kadrlar zaxirasining yetishmasligi o'rtasida nomutanosiblik paydo bo'ladi. Shu sababli demografik qarish tendensiyalarini hisobga olgan holda ijtimoiy siyosatni qayta ko'rib chiqish davlatlarning eng muhim vazifasiga aylanmoqda.

Aholining yoshi tarkibi, tug'ilish darajasi yoki migratsiya jarayonlari o'zgarganda mehnat bozori ham mos ravishda transformatsiyalanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demografik jarayonlar mehnat resurslari shakllanishining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ularning har qanday siljishi iqtisodiy tizimga bevosita ta'sir etadi.

Jahon tajribasiga tayanib aytganda, O'zbekiston ham demografik rivojlanishning ketma-ket bosqichlarini bosib o'tmoqda. Dastlabki bosqich yuqori tug'ilish va o'lim darajasi bilan, katta oilalar sonining ko'pligi bilan tavsiflanadi. Keyingi bosqichda esa tibbiyot va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishi natijasida o'lim darajasi kamayadi, ammo tug'ilish darajasi yuqori bo'lib qoladi. Bu holat aholining tez o'sishiga olib keladi. Hozirgi paytda O'zbekiston uchinchi bosqichda bo'lib, unda tug'ilish darajasi asta-sekin pasaymoqda, yoshlar ulushi esa yuqoriligicha qolmoqda.

To'rtinchi bosqich esa o'lim darajasi tug'ilishdan ortib ketadigan, ya'ni depopulyatsiya jarayonlari boshlangan davrni anglatadi. Bu bosqichda aholining tabiiy o'sishi to'xtab, keksalar ulushi ortadi. Demak, depopulyatsiya davlatning demografik va ijtimoiy barqarorligiga tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi, mehnat resurslari qisqaradi va mamlakatning iqtisodiy mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Janubiy Koreya


Janubiy Koreyadagi demografik o'zgarishlar mehnat bozoriga bir qator ta'sir ko'rsatmoqda, jumladan:

Mehnatga layoqatli aholining qisqarishi. Mehnatga layoqatli aholi soni 2020-yildagi 72 foizdan 2040-yilga kelib 56 foizgacha kamayishi prognoz qilinmoqda. Bu holat ish kuchiga bosim o'tkazadi, natijada iqtisodiyot avvalgi darajadagi samaradorlik va innovatsion faoliyatni saqlab qololmasligi mumkin.

Aholining qarishi. Aholining qarishi davlat resurslariga, ayniqsa sog'liqni saqlash hamda pensiya tizimlariga katta yuk bo'ladi. Janubiy Koreya aholisi dunyodagi eng tez qarib borayotgan mamlakatlardan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakat 2025-yilga kelib o'ta keksa jamiyatga aylanish arafasida turibdi, bunda 65 va undan katta yoshdagilar ulushi jami aholining 20 foizini tashkil etadi. 2050-yilga borib bu nisbat 44 foizgacha oshishi kutilmoqda. Janubiy Koreyaning ushbu yaqinlashib kelayotgan demografik o'zgarishlarga qanday munosabatda bo'lishi, uning keyingi o'n yilliklardagi aholi salomatligi istiqbollari belgilab beradi.¹

Tug'ilish darajasining pastligi. Janubiy Koreyada tug'ilish koeffitsiyenti dunyodagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, 2020-yilda har bir ayolga o'rtacha 0,84 tug'ilish to'g'ri keladi. Bu yangilanish darajasi uchun zarur bo'lgan 2,1 ko'rsatkichdan ancha past (1-rasm).

1 South Korea's population shift: challenges and opportunities. The Lancet Regional Health - Western Pacific. Volume 36, July 2023, 100865.



1-rasm. Janubiy Koreyada tug'ilish darjasi dinamikasi²

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, janubiy koreyalik er-xotinlar bir necha sabablarga ko'ra oila qurish va farzand ko'rishdan tiyilishmoqda. Bunga turar joy narxining qimmatligi, ta'lim xarajatlarining yuqoriligi hamda uzoq ish soatlari sabab bo'lmoqda. Ushbu omillarning salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida Koreya hukumati ota-onalar uchun tug'ruq va bola parvarishi bo'yicha nafaqa miqdorini oshirish, ota-onalar uchun ta'til muddatini uzaytirish, moslashuvchan ish soatlarini joriy etish va ota-onalarga ta'lim yukini kamaytirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Mehnat bozoridagi gender nomutanosibliklar. Koreyalik ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki past bo'lib, ish kuchi ishtirokida gender tafovutlari saqlanib qolmoqda. Janubiy Koreya hukumati mehnat bozorida gender tengsizligini bartaraf etish uchun turli siyosatlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Oilaga do'stona siyosat. Ishlaydigan ayollarni qo'llab-quvvatlash maqsadida hukumat to'lanadigan tug'ruq ta'tillari (hozirda 90 kun, ish haqining bir qismi hukumat tomonidan qoplanadi) va subsidiyalangan bola parvarishi tizimini joriy qildi. Ushbu siyosatlar farzand ko'rish natijasida yuzaga keladigan karyera uzilishlarini kamaytirish va ayollarning farzand tug'ilgach mehnat faoliyatiga qaytishini rag'batlantirishga qaratilgan.

- Ish joyida gender tengligi. Janubiy Koreya 1987-yilda ishga qabul qilish, lavozimga ko'tarilish va ish haqi bo'yicha jinsga asoslangan kamsitishlarni bartaraf etishga qaratilgan "Teng ish imkoniyatlari to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Biroq, ushbu qonunning ijrosi izchil emas va ko'plab ayollar hali ham kamsitishlarga duch kelmoqda.

- Rahbarlik lavozimlari uchun kvota tizimlari. Korporativ kengashlar va davlat idoralarida ayollar ulushini oshirish maqsadida rahbarlik lavozimlari uchun kvotalar joriy etilmoqda. Bu ayollarning boshqaruvdagi vakilligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Migratsiyani tartibga solish. Koreyadagi xorijlik ishchilar soni tez sur'atlar bilan oshib bormoqda. Xorijiy ishchilar oqimi mamlakat iqtisodiyotiga, umuman olganda, ijobiy ta'sir ko'rsatib, mahalliy ishchilar kamroq qiziqadigan tarmoqlarda immigrantlar ulushining ortishiga olib kelmoqda va shu orqali mehnat bozoridagi qarish tendensiyasini yumshatmoqda. Biroq, ko'plab immigrant ishchilar past malakali, kam maoshli sohalarda band bo'lganliklari sababli bu jarayon mehnat bozoridagi ijtimoiy tafovutlarni kuchaytirmoqda.

Ichki mehnat bozori konyunkturasini hisobga olgan holda, amaldagi ishga joylashishga ruxsat berish tizimi xorijliklarning ish joyi va muddatini me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali cheklaydi. Mahalliy ishchilarni himoya qilish maqsadida chet ellik ishchilarga ko'pi bilan besh yil davomida bir ish joyida ishlashga ruxsat beriladi. Xorijiy ishchilar soni esa har yili ichki mehnat bozori sharoitlariga qarab o'zgartiriladi. Bundan tashqari, ish beruvchilar va chet ellik ishchilar faoliyati qat'iy tartibga solinadi: ish beruvchilar chet ellik xodimlarni yollashdan avval mahalliy ishchilarni ish bilan ta'minlashga harakat qilishlari shart, chet ellik ishchilar esa ish joyini o'zgartirishda ayrim cheklovlariga duch keladilar.

Koreya hukumati imtiyozli bo'lmagan tarmoqlarda ishchi kuchi tanqisligini yumshatish maqsadida kam maoshli va professional bo'lmagan mehnat muhojirlariga e'tibor qaratishda davom etmoqda. Janubiy Koreya

2 The World Bank. Fertility rate, births per woman in South Korea. 2022.



migrantlarning yashash maqsadi, malaka darajasi va bandlik sektoriga qarab bir nechta turdagi vizalar hamda ishlash ruxsatnomalarini taklif etadi. Ularga quyidagilar kiradi:

E-9 vizasi (professional bo'lmagan mehnat vizasi): Bu EPS tizimi bo'yicha chet ellik ishchilar uchun eng keng tarqalgan viza turidir. Qurilish, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish kabi ishchi kuchi yetishmayotgan sohalarda qo'l mehnati bilan shug'ullanadigan chet el fuqarolariga beriladi. Viza odatda uch yil amal qiladi va keyinchalik uni uzaytirish mumkin.

E-7 vizasi (maxsus kasb vizasi): Ushbu viza IT, muhandislik, tibbiyot va tadqiqot kabi yuqori malakali yoki ilg'or sohalarda faoliyat yurituvchi xorijiy mutaxassislar uchun mo'ljallangan. U yanada moslashuvchan hisoblanadi va E-9 vizasiga nisbatan ko'proq ish imkoniyatlarini beradi.

D-8 vizasi (investitsiya vizasi): Bu viza Janubiy Koreyada biznes faoliyati, kompaniya tashkil etish yoki mavjud biznesga sarmoya kiritish bilan shug'ullanayotgan xorijiy fuqarolarga beriladi.

F-2 vizasi (rezident vizasi): Ushbu viza Janubiy Koreyada nikoh, ish yoki boshqa oilaviy asoslar orqali uzoq muddatli istiqomat qilayotgan chet el fuqarolariga beriladi.

F-5 vizasi (doimiy yashash vizasi): Bu viza Janubiy Koreyada uzoq yillar yashab, doimiy yashash uchun belgilangan talablarga javob bergan chet ellik rezidentlarga beriladi.

F-6 vizasi (nikoh migranti vizasi): Ushbu viza Janubiy Koreya fuqarolarining chet ellik turmush o'rtoqlariga beriladi. U egasiga mamlakatda yashash va ishlash huquqini beradi, biroq ayrim kasb turlari bo'yicha cheklovlar mavjud.

Qochqinlar vizalari: Janubiy Koreyada qochqinlarga odatda vaqtinchalik F-2 vizasi beriladi, shu davrda ularning boshpana so'rovlari ko'rib chiqiladi. Mamlakatda qochqinlarni qabul qilish darajasi past bo'lib, hukumat odatda murojaat etuvchilarning faqat kichik qismini boshpana bilan ta'minlaydi.

Demografik dividend. Janubiy Koreya iqtisodiyotiga foyda keltirgan "demografik dividend" endilikda "demografik qarz"ga aylanishi kutilmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun mamlakat hukumati ayollar va keksa yoshdagi ishchilar ishtirokini oshirish orqali mehnat resurslarini kengaytirishga intilmoqda. Biroq, keksa erkaklarning mehnatdagi ishtirok darajasi allaqachon yuqori bo'lgani sababli, asosiy e'tibor ayollar faoliyatini kuchaytirishga qaratilmoqda.

Koreya hukumati 2021-yildan boshlab besh yillik davrga mo'ljallangan "Qarish jamiyati va demografik siyosatning to'rtinchi asosiy rejasini" e'lon qildi. Yangi reja past tug'ilish darajasini kamaytirish strategiyasi sifatida "birgalikda ishlaydigan va g'amxo'rlik qiladigan jamiyat" konsepsiyasini ilgari suradi. Unga ko'ra, ishlamoqchi bo'lgan har qanday ayol — u tug'ruq davrida bo'lsin yoki yosh farzandga ega bo'lsin — ish topa olishi, o'z karyerasini davom ettira olishi va beqaror yoki kam maoshli ishga majburan rozi bo'lmasligi kerak. Asosiy strategiyalar qatoriga barcha jins vakillari uchun barqaror karyera rejasini yaratish, gender jihatdan teng mehnat sharoitlarini ta'minlash hamda ish va ota-onalik majburiyatlarini muvozanatlashtirish maqsadida onalik va otalik ta'tillari siyosatini takomillashtirish kiradi.³

Yaponiya

Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ)ning Yaponiya iqtisodiyoti bo'yicha hisobotida mamlakat aholisining tez sur'atlarda qarib borishi va mehnat resurslarining qisqarib borishi bilan bog'liq demografik bosimga qanday javob berish kerakligi haqidagi qizg'in munozaralar aks ettirilgan.

Mehnatga layoqatli aholining qisqarishi. Demografik o'zgarishlar bir necha o'n yillar davomida Yaponiya mehnat bozorining asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelgan. Yaponiyaning mehnat resurslari — 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lganlar — umumiy aholi tarkibida 1991–1993-yillarda 70 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich bugungi kunda 59 foizgacha pasaygan.

Yaponiya aholisining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 83 yilni tashkil etadi, bu dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholi statistikasi bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, ushbu demografik tendensiyalar natijasida 2030-yilga borib Yaponiyaning umumiy aholisi 127 milliondan 114 milliongacha kamayadi. Mehnatga layoqatli aholi sonining nisbiy qisqarishi esa yanada keskin bo'lib, 81 milliondan 67 milliongacha yoki 17 foizga kamayishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, Yaponiya keksa fuqarolari soni ortib boradi va 2030-yilga kelib mamlakatning o'rtacha yoshi 52 yoshdan oshadi, bu esa umumiy aholining 30 foizi 65 yosh va undan yuqori bo'lishini anglatadi.⁴

Tug'ilish darajasining pastligi. Yaponiyada tug'ilish darajasi 40 yildan ortiq vaqt mobaynida past darajada bo'lib kelmoqda. Shu sababli Yaponiya bugungi kunda dunyodagi eng keksa aholiga ega davlatlardan biri hisoblanadi.

Yaponiya sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda mamlakatda 799 728 ta tug'ilish qayd etilgan. Bu rekord darajadagi eng past ko'rsatkich bo'lib, ilk bor 800 000


3 The Presidential Committee on Ageing Society and Population Policy (PCASPP). The Fourth Basic Plan for Ageing Society and Population Policy [Internet]. Seoul: PCASPP; 2020

4 Gee Hee Hong and Todd Schneider. Japan is the world's laboratory for drawing policy lessons on aging, dwindling populations. Finance & Development | March 2020.



dan pastga tushgan holat sifatida qayd etildi. Taqqoslash uchun, 1982-yilda Yaponiyada 1,5 milliondan ortiq tug'ilish ro'yxatga olingan bo'lsa, so'nggi 40 yil ichida bu raqam deyarli ikki baravar kamaydi.

Bunday salbiy tendensiyaning asosiy sababi sifatida yoshlar orasida barqaror ish bilan bandlik istiqbollarning noaniqligi ko'rsatiladi. Bu holat ularning turmush qurish yoki farzandli bo'lish uchun yetarli daromad manbaiga ega bo'lmasliklariga olib kelmoqda (2-rasm).



2-rasm. Yaponiyada tug'ilish darajasi dinamikasi⁵

Yapon madaniyatiga xos bo'lgan ayrim jihatlar, ya'ni uy yumushlari va bolalarga g'amxo'rlik qilishda kuchli gender tafovutlarining saqlanib qolishi, yapon ayollari uchun turmush qurish jozibadorligini pasaytirmoqda. Yillar davomida Yaponiya hukumati yoshlarni turmush qurishga va farzand ko'rishga undash maqsadida bir qator dasturlarni joriy etib kelmoqda hamda ularning ko'lamini kengaytirmoqda. Jumladan, tug'ruq ta'tili (ota-onalar uchun bir yilgacha), moliyaviy yordam, soliq imtiyozlari, masofadan ishlash imkoniyatlari va bola parvarishi xizmatlari uchun yuqori miqdordagi subsidiyalar shular jumlasidandir. Biroq hozircha bu dasturlarning ijobiy samarasi sezilarli darajada natija bermagan.

Yaponiya hukumati bunday demografik inqirozga qarshi kurashning yangi yo'li sifatida to'rt kunlik ish haftasini sinov tariqasida joriy etishni rejalashtirmoqda. Islohotlar doirasida xodimlar haftasiga to'rt kun ishlashi bilan birga, bolalar parvarishi uchun qisman ta'til olish huquqiga ega bo'lishlari mumkin. Bunday tashabbus ish kunini ikki soatga qisqartirish imkonini beradi va bu ota-onalar uchun muhim qulaylik yaratadi.

So'nggi yillarda Yaponiyada urushdan keyingi davrda o'limlar soni rekord darajaga yetib, 1,58 million nafardan oshdi. Mamlakatda o'limlar soni so'nggi o'n yildan ortiq vaqt davomida tug'ilish ko'rsatkichidan yuqori bo'lib kelmoqda, bu esa hukumat va iqtisodiyot uchun jiddiy tashvishli holatni yuzaga keltirmoqda.

Migratsiya jarayonlarini tartibga solish. Yaponiyaning immigratsiya tizimi o'nlab yillar davomida ma'lum guruhlar uchun rezidentlik maqomi toifalarini joriy etish orqali rivojlandi. Rezidentlik maqomlari kasbiy toifalarga (masalan, professorlar va biznes vakillari), maxsus dasturlarga (masalan, texnik stajyorlarni tayyorlash dasturi) hamda xorijdagi yapon avlodlariga asoslanadi. Yaponiyada yuqori malakali ishchilar uchun rezidentlik maqomini jozibador qilish maqsadida hukumat 2012-yilda ball tizimiga asoslangan sxemani (PBS) joriy etdi. Ushbu tizimda yuqori ball to'plagan immigrant arizachilar va ularning oila a'zolari uchun qulayroq shart-sharoitlar, shuningdek, doimiy yashash huquqini tezroq olish imkoniyati yaratilgan. Ballar ta'lim darajasi, kasbiy malaka, til bilish, daromad hamda boshqa mezonlar asosida beriladi.

Past malakali ish o'rinlarini to'ldirish maqsadida bir nechta muhim kanallar yaratilgan bo'lsa-da, prinsipial jihatdan past malakali ishlar uchun keng ko'lamli mehnat migratsiyasiga ruxsat berilmagan. 1960-yillarda boshlangan texnik stajyorlar tayyorlash dasturi xorijliklarga ayrim past malakali kasblarda ishlash imkonini bergan. 1990-yillarda esa Yaponiya past malakali ishchilar uchun ikkinchi kanalni ochdi, bu orqali xorijdagi yapon avlodlari — uchinchi avlodgacha — Yaponiyada ishlash yoki oila a'zolarini ziyorat qilish huquqiga ega bo'lishdi (3-rasm).

⁵ Captain Tony Arnold. Analyzing Japan's Declining Birthrate & Aging Society as a National Security Issue. No. 351 September 6, 2024



Aholining qarishi muammosini tartibga solish	Tug'ilish darjasini tartibga solish	Mehnat resurslari tanqisligini oldini olish	Migratsiya jarayonlarini tartibga solish	Mehnat bozorini tartibga solish
Rossiya Keksa ishchilarni yollagan ish beruvchilarga subsidiyalar taklif qilish va qayta tayyorlash imkoniyatlarini taqdim etish, keksalarga ijtimoiy va tibbiy yordam berish.	Rossiya “Onalik kapitali” dasturi doirasida yangi farzand uchun bir martalik to'lov, ko'p bolali oilalar uchun soliq imtyozlari, uy uchun subsidiya va moliyaviy yordamlar	Rossiya Rossiya ishchi kuchi tanqisligini to'ldirish uchun boshqa mamlakatlardan, jumladan, Xitoy, Hindiston va Vetnamdan ishchilarni import qilishni hamda ishlab chiqarishni avtomatlashtirish darajasini oshirishni rejalashtirmoqda	Rossiya Xorijda ish bilan ta'minlash uchun xususiy agentliklarni yaratish, davlat tomonidan qat'iy tartibga solish	Rossiya Pensiya yoshini oshirish (erkaklar uchun 60 dan 65 yoshga, ayollar uchun 55 dan 60 yoshga), beqaror ish bilan bandlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, Ish bilan bandlikning barcha turlari bo'yicha teng imkoniyatlarni yaratish
Janubiy Koreya Keksa yoshlilarni mehnatga ko'proq jalb qilish, nafaqaxo'rlar uchun daromad xavfsizligini kuchaytirish.	Janubiy Koreya Oilalarning har bir yangi tug'ilgan bolasi uchun 740 \$ beriladi, Tug'ilishning past darajasiga qarshi rejalashtirish vazirligi tashkil etildi.	Janubiy Koreya Past malakali mehnat resurslarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash, xavfli va past malaka talab qiladigan ishlarga migrantlarni ko'proq jalb qilish	Janubiy Koreya Migratsiya jarayoni 2004 yilda qabul qilingan “EPS-ishlash ruxsatnomasi tizimi” (xorijiy migrantlar faqat rasmiy agentliklar orqali jalb qilinadi) orqali tartibga solinadi. E-9 vizasi (professional bo'lmagan mehnat vizasi), E-7 vizasi (Maxsus kasb vizasi), D-8 vizasi (investitsiya vizasi), F-2 vizasi (Rezident vizasi), F-5 vizasi (Doimiy yashash vizasi), F-6 vizasi (nikoh migrant vizasi)	Janubiy Koreya O'rtacha umr ko'rish davomiyligini hisobga olgan holda pensiya yoshini moslashtirish, beqaror bandlikda mehnat sharoitlarini yaxshilash va ish vaqti egiluvchanligini oshirish
Xitoy Shaharlarni keksalar uchun qulayroq qilib loyihalash (masalan, yurish mumkin bo'lgan ko'chalar, qulay jamoat transporti va yoshga mos uy-joy), keksalarga rasmiy va norasmiy yordam ko'rsatishni taklif qiluvchi jamoaviy parvarish tizimlarini rivojlantirishni rag'batlantirish	Xitoy Oilalarni ko'proq farzand ko'rishga undash uchun soliq imtiyozlari va uzaytirilgan tugru'q ta'tillari kabi imtiyozlarni joriy qilish, ikkinchi yoki uchinchi bolalar uchun naqd to'lovlar taklif qilish. Tug'ilish darjasini oshirish bo'yicha maxsus	Xitoy Qishloqdan shaharga migratsiyani rag'batlantirish shaharlarda ishchi kuchi tanqisligini bartaraf etishga yordam beradi. Sun'iy intellekt va avtomatlashtirishni rivojlantirish	Xitoy 3 ta agentlikni yaratish: mamlakat ichida yollash, xorijda ishlash va huquqlarni himoya qilish uchun, ischki migratsiyani rag'batlantirish, ishchi kuchi harakatchanligini subsidiyalash.	Xitoy Qishloq aholisini ham pensiya tizimi bilan qamrab olish, hududlar iqtisodiy potentsialidan kelib chiqib eng kam ish xaqi darajasini belgilash, “996” ish rejimi o'miga “855” ish rejimini joriy etish.
Yaponiya Hukumat korxonlarga 60 yoshgacha majburiy pensiya belgilash taqqlanishini e'lon qildi. Korxonalar 65 yoshga to'lgunga qadar mehnat faoliyatini davom ettirishga imkon berishlari kerak bo'ladi.	Yaponiya Farzandli bo'lganligi uchun davlat tomonidan soliq va moliyaviy imtiyozlar (Kodomo Teate), 1 yilgacha muddatga tug'ruq ta'tili yoki masofadan ishlash imkoniyati, bepul reproductive salomatlik xizmatlari va turmushni	Yaponiya Ishchi kuchi tanqisligini bartaraf etish uchun hukumat ishlab chiqarish, sog'liqni saqlash va qariyalarni parvarish qilish kabi sohalarida robototexnika, SI va avtomatlashtirish kabi ilg'or texnologiyalarga	Yaponiya Xorijliklar uchun doimiy yashash maqomini olish uchun 5 yil muntazam yashagan bo'lishi va moliyaviy mustaqil bo'lishi talab etiladi. 2019 yilda qurilish, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligidagi ishchi kuchi taqchilligini to'ldirish bo'yicha “Maxsus malakali ishchilar” dasturi ishga tushirildi.	Yaponiya 4 kunlik ish rejimi joriy qilindi, xodimlarga ishdan ertaroq ketish imkoniyati berildi, ortiqcha vaqt ishlaganlik uchun 100-200-300 % (hafta oxirida, dam olish kunlari, bayram kunlari) kompensatsiya belgilash.
Turkiya Keksa odamlar uchun umrbod ta'lim olish va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan siyosatlarini ishlab chiqish, qayta tayyorlash va ularni texnologiya yoki sog'liqni saqlash kabi yangi tarmoqlarga	Turkiya Har bir oila uchun kamida 3 ta farzandli bo'lishni rag'batlantirish, katta oila qadryatini tiklash hamda farzandli oilalar uchun moliyaviy va ijtimoiy rag'batlarni oshirish (tug'ruq ta'tilini uzaytirish, farzand tarbiyasi uchun mablag' ajratish v.k)	Turkiya Ayollarning mehnatga integratsiyasi, keksa ishchilarni qo'llab-quvvatlash, kasbiy ta'limni takomillashtirish, Malaka oshirish va qayta tayyorlash, ish-oila muvozanatini qo'llab-quvvatlash	Turkiya Yengil immigratsiya siyosati orqali malakali muhojirlarni jalb qilish, immigrantlar va qochqinlar uchun integratsiya dasturlari, sektorga xos migratsiya siyosati	Turkiya Norasmiy sektorni rasmiylashtirish, tez o'zgaruvchan sharoitda mehnat qonunchiligini isloh qilish, ijtimoiy ta'minot va pensiya tizimi isloh qilish (pensiya yoshini oshirish)

3-rasm. Jahon mamalatlari tajribasida mehnat bozori va demografik jarayonlarini tartibga solish usullari⁶

6 Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tizimlashtirildi.



Turkiya

Turkiyadagi demografik o'zgarishlar ham qiyinchiliklarni, ham imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Mamlakat demografik o'tish davrini boshdan kechirmoqda. Bu jarayon aholi sonining sekin o'sishi, tug'ilish darajasining pasayishi, aholining qarishi va jadal urbanizatsiya bilan tavsiflanadi. Ushbu tendensiyalar sog'liqni saqlash, pensiya, uy-joy va ta'lim sohalarida puxta o'ylangan siyosiy choralarni talab qiladi. Shu bilan birga, mintaqaviy tafovutlar, migratsiya va aholining qarishi bilan bog'liq muammolarni hal etish Turkiyaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiya XX va XXI asrlarda aholi sonining barqaror o'sishini boshdan kechirdi, garchi so'nggi yillarda o'sish sur'ati sekinlashgan. Turkiya Statistika Instituti (TÜİK) ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat aholisi 1980-yildagi 55 milliondan 2023-yilda taxminan 86 millionga yetgan.

So'nggi o'n yilliklarda aholining o'sish sur'ati sezilarli darajada kamaydi. Yillik o'sish sur'ati 1980–1990-yillarda 2 foizdan yuqori bo'lgan bo'lsa, 2010–2020-yillarda 1 foizdan pastga tushdi. Bu holat tug'ilish darajasining pasayishi va aholining qarishi bilan bog'liq. Turkiyadagi eng muhim demografik tendensiyalardan biri — aholining qarishidir. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi ortgani va tug'ilish kamaygani tufayli 65 yoshdan yuqori aholining salmog'i oshib bormoqda. 2020-yilda aholining qariyb 9 foizini 65 yoshdan oshganlar tashkil etgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu ulush 20 foizgacha yetishi prognoz qilinmoqda. Turkiyada o'rtacha umr ko'rish so'nggi o'n yilliklarda sezilarli darajada oshib, 1960-yildagi 55 yoshdan 2023-yilda 80 yosh atrofida bo'lgan. Bu sog'liqni saqlash, sanitariya, ovqatlanish va ijtimoiy siyosatdagi yaxshilanishlar bilan izohlanadi.

Turkiyada tug'ilish darajasi so'nggi o'n yilliklarda keskin pasaydi. 1960-yillarda tug'ilish koeffitsiyenti har bir ayolga 6 boladan ortiq bo'lgan bo'lsa, 2020-yillarning boshiga kelib, bu ko'rsatkich har bir ayolga 2,0 bolaga kamaydi. Ayol boshiga 2,1 bola tug'ilish darajasi o'rnini bosuvchi daraja hisoblanadi. Demak, Turkiyaning hozirgi tug'ilish darajasi bu chegaradan past bo'lib, aholining qarishiga hissa qo'shmoqda.

Tug'ilishning bunday pasayishiga bir qancha omillar sabab bo'lmoqda. Jumladan, urbanizatsiya, ijtimoiy me'yorlarning o'zgarishi, ayollarning ishchi kuchidagi faolligi, ta'lim va oilani rejalashtirish imkoniyatlarining kengayishi, shuningdek, bolalarni tarbiyalashning yuqori xarajatlari shular jumlasidandir.

Turkiya aholisining qarishi uning mehnat bozoriga ta'sir ko'rsatayotgan eng muhim demografik omillardan biridir. 65 yoshdan katta aholining ulushi ortgani sayin mehnatga layoqatli guruhdagi (15–64 yosh) aholining ulushi kamaymoqda. Ishchi kuchining qisqarishi esa potentsial ishchi kuchi tanqisligiga olib keladi, chunki davlat va xususiy sektorlarda bo'sh o'rinlarni to'ldirish uchun kamroq kadr mavjud bo'ladi.

Bog'liqlik koeffitsiyenti — ya'ni mehnatga layoqatli aholiga nisbatan qaramog'ida bo'lganlar soni — aholi yoshi ortgani sayin oshib boradi. Bu esa ijtimoiy xizmatlar, pensiya va sog'liqni saqlash tizimlariga tayanadiganlar sonining ko'payishini anglatadi. Shu bilan birga, soliqlar va ijtimoiy sug'urta badallari orqali hissa qo'shadiganlar soni kamayadi.

Turkiya aholisining qarishi bilan birga hozirgi pensiya tizimidan foydalanuvchilar soni ortmoqda. Mehnatga layoqatli aholi qisqarishi bilan ijtimoiy ta'minot tizimi moliyaviy bosim ostida qolmoqda. Hukumat barqarorlikni ta'minlash uchun pensiya yoshini moslashtirish yoki soliqlarni oshirish choralarini ko'rish mumkin. Uzoq umr ko'rish natijasida pensiyaga chiqqan shaxslarga ko'proq moliyaviy yordam kerak bo'ladi, bu esa soliqlar oshirilganda yosh avlodlar uchun ixtiyoriy daromadni kamaytiradi.

Turkiyada mehnatga layoqatli aholining qisqarishi mamlakat duch kelayotgan eng muhim demografik muammolardan biridir. Tug'ilish darajasining pasayishi, o'rtacha umr ko'rishning ortishi va aholining qarishi kabi omillarning kombinatsiyasi iqtisodiyot, mehnat bozori hamda ijtimoiy ta'minot tizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ko'plab yoshlar, ayniqsa oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari va malakali mutaxassislar, yaxshi iqtisodiy imkoniyatlar izlab xorijga ko'chib ketmoqda. Bu "aqlar oqimi" mehnatga layoqatli aholining qisqarishini yanada kuchaytiradi, chunki yuqori malakali shaxslar Turkiyani tark etib, rivojlangan mamlakatlarda mehnat qilmoqda.

Demografik o'zgarishlarning Turkiya mehnat bozoriga salbiy ta'sirini yumshatish uchun mamlakat proaktiv, istiqbolli strategiyalarni qabul qilishi zarur. Asosiy demografik muammolar qatoriga aholining qarishi, mehnatga layoqatli aholining qisqarishi, tug'ilish darajasining pasayishi va yoshlarning migratsiyasi kiradi. Ushbu tendensiyalar katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirayotgan bo'lsa-da, Turkiya samarali siyosat va islohotlarni amalga oshirish orqali bu salbiy jarayonlarning ayrimlarini imkoniyatlarga aylantirishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demografik jarayonlar mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy siyosati va mehnat bozori holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois davlatlar demografik qarish, migratsiya oqimlari hamda tug'ilish darajasidagi o'zgarishlarga moslashgan holda uzoq muddatli strategiyalar ishlab chiqishlari lozim. O'zbekiston sharoitida demografik barqarorlikni ta'minlash uchun mehnat resurslarini samarali boshqarish, yoshlar bandligini oshirish va ijtimoiy siyosatni demografik tendensiyalar bilan uyg'unlashtirish zarur.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. United Nations (UN). World Population Prospects 2024: Summary of Results. New York: United Nations, 2024.
2. World Bank. World Development Indicators 2024. Washington, DC: World Bank Publications, 2024.
3. United Nations Department of Economic and Social Affairs. World Population Ageing 2023. New York, 2023.
4. OECD. Population and Labour Market Outlook 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
5. Lee, R., & Mason, A. (2017). The Demographic Dividend: A New Perspective on the Economic Consequences of Population Change. *Population and Development Review*, 43(1), 1–34.
6. Bloom, D. E., & Canning, D. (2019). Demographic Change and Economic Growth in Developing Countries. *World Bank Economic Review*, 33(2), 325–347.
7. United Nations Population Fund (UNFPA). The State of World Population 2023: 8 Billion Lives, Infinite Possibilities. New York, 2023.
8. Qodirov, I. (2022). "O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning mehnat resurslariga ta'siri." *Iqtisodiyot va ta'lim jurnali*, №4, 45–52-betlar.
9. Xusanova, G. (2023). "Demografik o'sish va mehnat bozorida strukturaviy o'zgarishlar." *TDIU Ilmiy axborotnomasi*, №2, 60–67-betlar.
10. Karimov, A. (2024). O'zbekistonning demografik rivojlanish tendensiyalari va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
11. Zlotnik, H. (2021). International Migration and the Changing Demographic Structure of the World. *Population Bulletin*, 76(3), 15–28.
12. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2023/2024: Breaking the Gridlock. New York, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
